

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

34-mavzu: “Mening oilam”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarda oila – jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini ekanligi, oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va mas’uliyat haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

Annotatsiya: Mazkur mashg‘ulot davomida o‘quvchilar oila tushunchasining ma’naviy-axloqiy, huquqiy va hissiy jihatlarini anglaydilar. Suhbat, guruhli ish, video lavha, o‘yinli topshiriqlar, maqollar va sahna ko‘rinishlari orqali oiladagi har bir a’zoning o‘rni, majburiyati va burchi haqida fikr yuritishadi. “Oila – mehr maskani” g‘oyasi asosida o‘quvchilarda o‘z oilasiga mehr, g‘urur va mas’uliyat hissi kuchayadi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda “oila” tushunchasining mohiyatini anglash ko‘nikmasini shakllantirish;
2. Oilaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish;
3. Har bir oila a’zosining o‘zaro hurmati, mas’uliyati va mehr-muhabbati haqida fikr yuritish;
4. O‘quvchilarda oilaga sadoqat, ota-ona mehnatini qadrlash va oilaviy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash.

Asosiy g‘oyalar: Oila – inson hayotining poydevori. Har bir bola, har bir inson o‘z oilasida muhabbat, mehr va mas’uliyatni his qilib ulg‘ayadi. Oilada mehr-oqibat, sabr, hurmat va fidoyilik muhitini yaratish – har bir a’zoning vazifasidir.

Kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada

- O‘quvchilar “oila” tushunchasini keng qamrovda tushunadi;
- Oila jamiyatning asosi ekanligini anglaydi;
- Har bir a’zoning oiladagi o‘rni va burchini biladi.

Hissiy va qadriy yondashuvda

- Mehr, g‘amxo‘rlik, hurmat kabi qadriyatlarni qadrlaydi;
- Ota-ona mehnatini e’tirof etadi;
- Oilaga muhabbat va sadoqat hissi kuchayadi.

Amaliy ko‘nikmalarda:

- O‘z oilasi haqida iftixor bilan so‘zlay oladi;
- Oilada muammolarni muloqot orqali hal etish yo‘llarini biladi;
- O‘z oilasida ijobiy muhit yaratishga harakat qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Oila qadriyatlarini himoya qilish mas’uliyatini his etadi;
- Jamoada o‘zaro hurmat va totuvlikni qadrlaydi.

Metapredmet yondashuv: Bu dars orqali o'quvchilar turli fanlardan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Mashg'ulot shakli: suhbat, guruhli ish, videolavha, o'yinli topshiriq, tahlil.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

Doskada suratlar: oq ayiq va bolasi, pingvin va bolasi, juft oqqushlar...



O‘qituvchi: Bolalar, mana, birinchi rasmga qaranglar. Bu yerda oq ayiq o‘z bolasini bag‘riga bosib turibdi. Sizningcha, u nima qilyapti?

O‘quvchilar: U bolasini isityapti. Uni sovuqdan himoya qilyapti. Onasi uni yaxshi ko‘radi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri aytdingiz. Kichkina ayiqchanning hali mo‘ynasi yupqa bo‘ladi, u tez sovqotadi. Ona esa uni o‘zining mehri bilan isitadi, asraydi. Endi ikkinchi rasmga qaraymiz. Bu yerda ota pingvin bolasiga baliq olib kelib yediriyapti. Sizningcha, bu nimani anglatadi?

O‘quvchilar: U bolasini ovqatlantiriyapti. Unga g‘amxo‘rlik qilyapti. Uni boqiyapti.

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Demak, ota ham bolasiga g‘amxo‘rlik qiladi, uning och qolmasligi uchun harakat qiladi. Endi uchinchi rasmga qaranglar. Bu yerda oqqushlar yonma-yon suzib ketishyapti. Ular haqida nima deya olasiz?

O‘quvchilar: Ular birga yashaydi. Ular ajralmaydi. Ular do‘st.

O‘qituvchi: Ha, oqqushlar juda sadoqatli bo‘ladi. Ular bir umr birgina jufti bilan yashaydi. Bu – vafo va muhabbat ramzi.

Endi o‘ylab ko‘ringlar: bu narsalar sizlarga nimani eslatiyapti?

O‘quvchilar: Oila. Ota-ona. Uy.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, bolalar. Hatto hayvonlar ham o‘z bolalarini asraydi, boqadi va yonida bo‘ladi. Sizlar ham multfilmlarda shunaqa holatlarni ko‘rgansizlar, to‘g‘rimi? Masalan, pingvin Lolo yoki kichkina maymunchalar haqida multfilmlarni yaxshi eslaysizlar. Ularda ham ota-ona va bolalar birga bo‘ladi.



Endi aytinglar-chi: oila nima uchun kerak? Bolalar uchun oila nimani anglatadi?

O‘quvchilar: Oila bizni himoya qiladi. Oila bizni yaxshi ko‘radi. Oila bizga yordam beradi. Oila – bu uy.

O‘qituvchi: Juda yaxshi javoblar berdingiz.

Bolalar, biz yuqorida aytdikki, hayvonlar o‘z bolalarini asraydi, boqadi, yonida bo‘ladi. Ammo inson oilasi bundan ham kengroq va chuqurroq tushuncha. Inson oilasi – bu nafaqat birga yashash, balki bir-birini tushunish, qo‘llab-quvvatlash va mehr berish degani.

Tasavvur qiling, siz maktabdan charchab keldingiz. Uyga kirganingizda sizni kim kutib oladi? Kim sizdan “Yaxshimisan?” deb so‘raydi?

O'quvchilar: Onam, dadam, buvim-bobom, opa-ukam.

O'qituvchi: To'g'ri. Oila – bu sizni har kuni kutadigan, sizni tushunadigan va siz uchun qayg'uradigan eng yaqin insonlar. Oila – bu shunchaki uy emas, bu mehr bor joy. Agar uyda mehr bo'lsa, u yer haqiqiy oilaga aylanadi.

Masalan, siz xafa bo'lsangiz, kim sizni ovutadi?

O'quvchilar: Onam, dadam.

O'qituvchi: Demak, oila sizni nafaqat sovuqdan yoki jaziramadan, balki qayg'udan ham himoya qiladi. Oila – bu sizning qalbingizni isitadigan joy.

Siz biror narsani bilmasangiz yoki qiynalsangiz, kimdan yordam so'raysiz?

O'quvchilar: Ota-onamizdan.

O'qituvchi: Juda to'g'ri. Oila – bu sizga yo'l ko'rsatadigan maktab hamdir. Bu yerda siz gapirishni, hurmat qilishni, yaxshilik qilishni o'rganasiz. Eng birinchi tarbiya aynan oilada boshlanadi.

Siz bilasizki, dunyoda nima bo'lishidan qat'i nazar, sizning oilangiz sizni tashlab qo'ymaydi. Ular har doim yoningizda bo'ladi.

Shuning uchun ham oila – bu eng katta boylik. Uni sotib olib bo'lmaydi, lekin asrab qolish mumkin.

Endi aytinglar-chi, agar oila biz uchun shunchalik muhim bo'lsa, biz oilamiz uchun nima qilishimiz kerak?

O'quvchilar: Yordam berishimiz kerak. Hurmat qilishimiz kerak. Oilamizda kattalarning gapiga quloq solishimiz kerak. Yaxshi bo'lishimiz kerak.

O'qituvchi: Ajoyib! Demak, oila faqat bizni asramaydi, biz ham oilamizni asrashimiz kerak. Mehr bilan, hurmat bilan, yaxshi so'zlar va yaxshi ishlar bilan.

Bugun biz sizlar bilan aynan shu mavzuda suhbatlashamiz: oila nima, u nega biz uchun muhim va biz oilamizni qanday asrashimiz kerak.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Bolalar, inson uy qurishi mumkin. Chiroyli mebel olishi mumkin. Lekin haqiqiy iliq oila pul bilan qurilmaydi. Uni mehr, hurmat va ishonch quradi.

Hozir shunday mehrli va mehnatkash bir oila haqida video tomosha qilamiz. Bunday oilalar yurtimizda juda ko'p. Tomosha qilish jarayonida balki o'zingizga yoki oilangizga xos narsalarni ko'rib qolsangiz, qayd etib boring, keyin aytib berasiz.

Vizual kontent

Sirojiddinning qishloqdagi bir kuni

<https://youtu.be/NM9IPm83IQM>

O‘qituvchi: Bu oiladagi ko‘zga ko‘ringan va ko‘rinmayotgan mehrni payqadingizmi? Sizlar ham oilangizda shunday mehrni tuyasizlar, albatta, shundaymi?

O‘quvchilardan javoblar olinadi.

O‘qituvchi: Endi doskaga qaranglar. Bu yerda bir daraxt tasvirlangan. Ammo bu oddiy daraxt emas, bu – oila daraxti. Sizningcha, bu daraxtning ildizi nimani anglatadi?



O‘quvchilar: Buvilar. Bobolar. Kattalar.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Ildiz – bu buvi va bobolarimiz. Ular bizning boshlanishimiz. Daraxtning tanasi esa kim bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar: Ota-ona.

O‘qituvchi: Ha, ota-ona daraxtning tanasiga o‘xshaydi. Ular bizni tutib turadi, bizga kuch beradi. Endi shoxlari kimlar bo‘ladi?

O‘quvchilar: Biz. Bolalar. Aka-uka, opa-singillar.

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Demak, oila – bu katta bir daraxtga o‘xshaydi. Unda har bir a‘zo bir-biriga bog‘langan. Agar ildiz bo‘lmasa, daraxt yashay oladimi?

O‘quvchilar: Yo‘q.

O‘qituvchi: Agar tanasi bo‘lmasa-chi?

O‘quvchilar: Yo‘q.

O‘qituvchi: Demak, oilada ham har bir inson muhim. Endi aytinglar-chi, oilada har kimning o‘z vazifasi bormi?

O'quvchilar: Ha.

O'qituvchi: To'g'ri. Masalan, otalarimiz ishlaydilar, pul topadilar, bizni himoya qiladilar. Onalarimiz esa ovqat pishiradilar, tarbiyalaydilar, mehr beradilar. Buvilar va bobolar maslahat berishadi, ertaklar aytishadi, g'amxo'rlik qilishadi.

O'qituvchi: Sizlar-chi, bolalar? Sizlarning vazifangiz nima?

O'quvchilar: Yaxshi o'qish, uyda kattalarga yordam berish, odobli bo'lish.

O'qituvchi: Juda to'g'ri. Demak, sizlar ham oilaning muhim a'zosisiz. Har biringizning harakatingiz oilangizga ta'sir qiladi.

Oila bizni inson qiladi. Biz muloqotni, kattalarni hurmat qilishni, odamlarga yaxshilik qilishni aynan oilada o'rganamiz. Shuningdek, bizning iste'dodimiz yuzaga chiqishida ham oilaning roli katta.

Endi yana bir qiziqarli videoni tomosha qilamiz. Unda shaxmat bo'yicha jahon chempioni Javohir Sindorovning bobosi Komiljon Sindorov bilan suhbatni ko'ramiz. Bu suhbat orqali sizlar chempion bo'lish faqat iqtidor emas, balki oiladagi tarbiya, sabr, qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'l-yo'riq bilan bog'liqligini bilib olasiz.

Vizual kontent

Javohirning bobosi bo'lib tanildim...

<https://youtu.be/AF3Wnk7MuZU>

O'qituvchi: Demak, bolalar, har bir yutuq ortida mehrli oila, sabrli tarbiya va doimiy qo'llab-quvvatlash turadi. Agar oila ishonch bersa va yo'l ko'rsatsa, har biringiz o'z sohangizda katta natijalarga erishishingiz mumkin.

Bolajonlar, sizlar kattalarga hurmat deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilar: Salom berish. Yordam berish. Gapini bo'lmaslik.

O'qituvchi: Juda yaxshi. Hurmat – oilaning eng muhim qoidalaridan biri.

Endi yana bir savol: sizlarning oilangizda qanday odatlar bor?

O'quvchilar oilasidagi odatlarni aytishadi, masalan: bayramlarda ma'lum bir taomlar pishirish, tug'ilgan kunlarni nishonlash an'analari, mehmon kutish, birga ovqatlanish, sayrga chiqish va hokazo.

O'qituvchi: Ajoyib. Mana shu odatlar oilani mustahkam qiladi. Endi kichkina o'yin o'ynaymiz. Bu safar hammamiz birgalikda faol qatnashamiz. O'yinimiz nomi – **“Mehr halqasi”**.

Hammamiz o'rnimizdan turib, kichkina doira shaklida joy egallaymiz. Men birinchi bo'lib boshlayman. Qo'limni yonimdagi o'quvchiga uzataman va oilamni yaxshi ko'rishimga bitta sabab aytaman: “Men oilamni yaxshi ko'raman, chunki ular meni har kuni kutadi.”

Keyin o'sha o'quvchi mening qo'limni ushlab, navbatdagi o'quvchiga ulanadi va u ham o'z sababini aytadi. Shunday qilib, hamma bir-biriga ulanib chiqadi va biz katta "mehr halqasi" hosil qilamiz.

O'quvchilar (*navbat bilan*):

- Men oilamni yaxshi ko'raman, chunki ular meni himoya qiladi.
- Men oilamni yaxshi ko'raman, chunki ular meni tushunadi.
- Men oilamni yaxshi ko'raman, chunki ular menga yordam beradi.
- Men oilamni yaxshi ko'raman, chunki ular meni yaxshi ko'radi.

(O'yin davom etadi, barcha o'quvchilar qatnashadi, bunda sabablarni takror aytilishiga ham ruxsat beriladi, asosiysi, hamma bola ovoz chiqarib gapirishi).

O'qituvchi: Qaranglar, bolalar, biz hozir qo'llarimizni birlashtirib katta halqa hosil qildik. Bu birlikni, do'stlikni, oilaviy mehr-muhabbatni anglatadi. Oila ana shunday hammani birlashtiradigan mehr halqasidir. Agar bu halqa mustahkam bo'lsa, uni hech narsa buzolmaydi.

Endi yana bir videoni tomosha qilamiz. Unda bir oiladan chiqqan buyuk ixtirochilar haqida hikoya qilinadi. Ular bir-birini qo'llab-quvvatlab, birgalikda harakat qilib, butun dunyoni o'zgartirgan kashfiyotlar qilishgan. Bu video orqali sizlar oila ichidagi birlik va ishonch qanday katta natijalarga olib kelishini ko'rasizlar.

Vizual kontent

Bir oiladan chiqqan qahramonlar

https://youtu.be/zMrrqw_ooCA

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, bolalar, bir oiladagi ahillik, ishonch va bir-birini qo'llab-quvvatlash insonni buyuk ishlarga olib chiqadi. Demak, oila nafaqat mehr manbai, balki katta orzularni amalga oshirishga kuch beradigan eng muhim tayanchdir.

III. YAKUNIY QISM (5 daqika)

O'qituvchi: Bolalar, bugun biz juda muhim mavzu – oila haqida gaplashdik. Oila bizni himoya qiladi, yaxshi ko'radi, yordam beradi. Bizni asraydigan, tushunadigan va qo'llab-quvvatlaydigan joy aynan oiladir.

Kelinglar, hozir hammamiz o'rnimizdan turamiz va bir quvnoq qo'shiqni birgalikda kuylaymiz.

Musiqiy kontent

"Sog'lom avlod qo'shig'i" – karaoke

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/586

O‘qituvchi: Endi o‘ylab ko‘ringlar: oila mustahkam bo‘lishi uchun siz nima qila olasiz?

O‘quvchilar: Yaxshi o‘qiyman. Kattalarni hurmat qilaman. Yaxshi gapiraman.

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Har bir kichkina yaxshilik oilani mustahkam qiladi. Endi har biringiz o‘zingizga savol bering: men bugundan boshlab oilam uchun nima qilaman?

Bu savolning javobini daftaringizga yozib qo‘ying va uni doim qiling.

Unutmanglar, eng katta boylik – bu oila. Uni qadrlang va oila a‘zolaringizga doimo mehr bilan yondashing.